



## BANKLARNING QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAGI OPERATSIYALARI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLARI VA BARTARAF ETISH YO'LLARI

**Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0004-9210-5885

[donyorniyozmetov7503@gmail.com](mailto:donyorniyozmetov7503@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganishga bag'ishlangan. Banklar o'z moliyaviy portfelini diversifikatsiya qilish, risklarni boshqarish va qo'shimcha daromad olish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yuritadilar. Biroq, bu jarayonda yuzaga keladigan qator muammolar mavjud: likvidlik yetishmovchiligi, bozor volatilligi, regulyatsion cheklovlar va axborot assimetriyasi kabi omillar bank operatsiyalarining samaradorligini pasaytirishi mumkin. Ushbu muammolarni hal etish uchun zamonaviy risklarni boshqarish usullari, regulyatorlar tomonidan qabul qilingan yangi qoidalar, bozor sharoitlariga moslashish va texnologik yangiliklardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mavzuning dolzarbligi global moliyaviy bozorlarning o'zgaruvchanligi sharoitida banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalarining muhimligidan kelib chiqadi.

**Kalit so'zlar:** likvidlik, qimmatli qog'ozlar bozori, moliyaviy bozorlar, tijorat banklari, investitsiya portfelli, risklarni boshqarish.

## ПРОБЛЕМЫ БАНКОВ С ОПЕРАЦИЯМИ НА РЫНКЕ ЦЕННЫХ БУМАГ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ

**Ниязметов Данир Режаббаевич**

Ташкентский государственный экономический университет

**Аннотация.** Данная статья посвящена изучению проблем, связанных с операциями коммерческих банков на рынке ценных бумаг, и путей их преодоления. Банки работают на фондовом рынке с целью диверсификации своего финансового портфеля, управления рисками и получения дополнительного дохода. Однако в этом процессе возникает ряд проблем: такие факторы, как дефицит ликвидности, волатильность рынка, нормативные ограничения и информационная асимметрия, могут снизить эффективность банковских операций. Для решения этих задач анализируются современные методы управления рисками, новые правила, принятые регулируемыми органами, возможность адаптации к рыночным условиям и использования технологических инноваций. Актуальность темы обусловлена важностью вопросов обеспечения финансовой устойчивости банков в условиях волатильности мировых финансовых рынков.

**Ключевые слова:** ликвидность, фондовый рынок, финансовые рынки, коммерческие банки, инвестиционные портфели, управление рисками.

## PROBLEMS OF BANKS WITH OPERATIONS IN THE SECURITIES MARKET AND WAYS TO OVERCOME THEM

*Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich*  
*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** *This article is devoted to the study of problems related to the operations of commercial banks in the securities market and ways to overcome them. Banks operate in the stock market in order to diversify their financial portfolio, manage risks and generate additional income. However, a number of problems arise in this process: factors such as lack of liquidity, market volatility, regulatory restrictions and information asymmetry can reduce the effectiveness of banking operations. To solve these problems, modern risk management methods, new rules adopted by regulatory authorities, the possibility of adapting to market conditions and using technological innovations are analyzed. The relevance of the topic is due to the importance of ensuring the financial stability of banks in conditions of volatility of global financial markets.*

**Keywords:** *liquidity, stock market, financial markets, commercial banks, investment portfolios, risk management.*

### **Kirish.**

Banklar zamonaviy iqtisodiyotda moliyaviy vositachilar sifatida muhim rol o'ynab, o'z mablag'larini diversifikatsiya qilish va qo'shimcha daromad olish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yuritadilar. Ushbu bozor banklar uchun investitsiya portfelini kengaytirish, risklarni boshqarish, likvidlikni ta'minlash va kapitalni samarali boshqarish imkoniyatlarini taqdim etadi. Banklar aksiyalar, obligatsiyalar, davlat qimmatli qog'ozlari va boshqa moliyaviy instrumentlarni sotib olish va sotish orqali daromad olishga intiladilar. Shu sababli, qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning ishtiroki ularning umumiy moliyaviy strategiyasida muhim o'rin egallaydi.

Biroq, banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati bir qator murakkabliklar va xavf-xatarlar bilan bog'liqdir. Bozor volatilligi, global iqtisodiy o'zgarishlar, siyosiy noaniqliklar va likvidlik yetishmovchiligi banklar uchun jiddiy xavf tug'diradi. Bozor narxlarining kutilmagan o'zgarishlari banklarning aktivlari qiymatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va ular zarar ko'rishini mumkin. Shuningdek, regulyatsion cheklovlar va bozorning likvidlik darajasining pastligi qimmatli qog'ozlar operatsiyalarini amalga oshirishda muhim to'siqlarni yuzaga keltirishi mumkin. Bundan tashqari, banklar tezkor qarorlar qabul qilish talab etiladigan sharoitda risklarni samarali boshqarish qobiliyatini namoyish etishi kerak.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun banklar risklarni boshqarish strategiyalarini kuchaytirishi, texnologik innovatsiyalardan foydalanishi va yangi regulyatsiyalarga moslashishi lozim. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, blokcheyn va sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan tahliliy vositalar bozor xavfini kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, algoritmik savdo va big data tahlillari banklarga bozor tendensiyalarini aniqlash va tezkor savdo qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Shu tarzda banklar qimmatli qog'ozlar bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhim strategiyalar ishlab chiqishlari va risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishlari zarur bo'ladi.

### **Adabiyot sharhi.**

Raghuram Rajan (2010) – "Fault Lines: How Hidden Fractures Still Threaten the World Economy" asarida Rajan qimmatli qog'ozlar bozoridagi tizimli risklarning rivojlanishiga e'tibor qaratadi. U global moliyaviy tizimdagi kuchlanishlar va ulardan kelib chiqadigan qimmatli qog'ozlar bozoridagi muammolarni bartaraf etish uchun ko'proq tartibga solish va barqarorlikni oshirish choralari tavsiya qiladi. Admati, va Hellwig, (2014) – "The Bankers' New Clothes: What's Wrong with Banking and What to Do about It" asarida Anat Admati va

Martin Hellwig banklarning kapital yetarliligi masalasini tahlil qilgan va qimmatli qog'ozlar bozoridagi xavflarni kamaytirish uchun banklar kapitalini oshirish zarurligini ta'kidlaydi. Thakor, A.V. (2015) – "The Financial Crisis of 2007–2009: Why Did It Happen and What Did We Learn?" maqolasida Anjan Thakor qimmatli qog'ozlar bozoridagi spekulyatsion muammolarni va ularning moliyaviy inqirozda o'ynagan rolini tahlil qiladi (Turner, 2016). U bozor xavfsizligini oshirish uchun qat'iyroq tartibga solish choralarini taklif etadi. Turner, A. (2016) – "Between Debt and the Devil: Money, Credit, and Fixing Global Finance" asarida Adair Turner qimmatli qog'ozlar bozoridagi kredit yaratish va spekulyatsion faoliyatlar tufayli yuzaga keladigan muammolarni tahlil qiladi. U kredit hajmini cheklash va moliyaviy tartibni kuchaytirish orqali qimmatli qog'ozlar bozoridagi muammolarni hal qilishni taklif etadi.

Bu olimlarning fikrlariga ko'ra, qimmatli qog'ozlar bozoridagi muammolarni bartaraf etish uchun moliyaviy tizimni yanada tartibga solish, investorlarning xatti-harakatlarini nazorat qilish, axborot asimmetriyasini kamaytirish va tizimli xavflarni bartaraf etish zarur. Bu choralar bozorning barqarorligini ta'minlashda va kelajakdagi moliyaviy krizislarni oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Chet el iqtisodchilari va mutaxassisleri kabi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyati bilan bog'liq masalalar mamlakatimiz iqtisodiy olimlari tomonidan tadqiq etilishi alohida e'tirofga loyiqdir. Shunga qaramay, ularning ilmiy ishlari to'g'ridan-to'g'ri tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini ta'riflamagan bo'lsa ham, qimmatli qog'ozlar bozori haqida o'z ilmiy yondashuvlarini ifoda etishgan.

Masalan, Saipnazarov (2020) o'zining ilmiy tadqiqoda: "Qimmatli qog'ozlar bozori bu - Qimmatli qog'ozlar bozori – bu moliyaviy aktivlar savdosi amalga oshiriladigan, investorlar va moliyaviy institutlar o'rtasida kapitalning samarali taqsimlanishini ta'minlovchi dinamik va murakkab tizimdir. Bu bozor, faqat savdo-sotiq nuqtasi bo'lishdan tashqari, iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashda va korxonalarining moliyaviy resurslarga kirishini yengillashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotning "qon aylanish tizimi" sifatida qaralishi mumkin, chunki u moliyaviy resurslarni ishlab chiqaruvchilardan iste'molchilarga yo'naltirish orqali umumiy iqtisodiy faoliyatni qo'llab-quvvatlaydi", deb tijorat banklarining ushbu bozordagi faoliyatiga emas, balki umumiy qimmatli qog'ozlarga nisbatan ta'rif beradi.

Xuddi shuningdek, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori Haydarov (2022) o'zining ilmiy ishida: "Qimmatli qog'ozlar bozori – bu moliyaviy vositalar, jumladan aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar sotiladigan va sotib olinadigan muhim iqtisodiy maydon bo'lib, unda moliyaviy institutlar va investorlar o'rtasida kapital almashinuvi sodir bo'ladi. Ushbu bozor, nafaqat investitsiya imkoniyatlari yaratish, balki iqtisodiyotning umumiy moliyaviy barqarorligini ta'minlash va korporativ rivojlanishni rag'batlantirishda ham asosiy vazifani bajaradi. Qimmatli qog'ozlar bozori, iqtisodiy o'sish va rivojlanishning katalizatori sifatida, mablag'larni eng samarali yo'nalishlarga taqsimlash imkoniyatini beradi" degan tarzda ta'rifni bildirgan. Albatta, ushbu ta'rifda qimmatli qog'ozlar sub'ektlari, ularning emitentlari xususidagi masalalar e'tibordan chetda qolgan. Bularning barchasi mazkur masalalar bo'yicha nazariy va ilmiy jihatdan tadqiqot ishlarini amalga oshirish zaruriyati mavjudligidan dalolat beradi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalari bilan bog'liq faoliyatini aniqlash uchun qiyosiy va statistik usullardan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatlarini takomillashtirish uchun innovatsion investitsiya yondashuvlarini ishlab chiqishlari zarur. Bu yondashuvlar banklarga

yangi texnologiyalarni qo'llash orqali risklarni kamaytirish va daromadlarni oshirish imkonini beradi.

Banklar o'z qimmatli qog'ozlar portfellarini optimallashtirish uchun ilg'or boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishlari lozim. Bunda, bozorning hozirgi holati, valyuta kurslari va foiz stavkalari kabi omillar inobatga olinishi kerak.

Tijorat banklari uchun qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatni optimallashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri — mijozlarga xizmat ko'rsatishni takomillashtirishdir. Banklar mijozlar bilan ishlash jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanib, ularga individual yondashuv va keng ko'lamli xizmatlarni taklif qilishlari lozim.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida raqamli texnologiyalarni qo'llagan holda yangi kibexavfsizlik xavflariga duch kelishlari mumkin. Bu xatarlarni minimallashtirish uchun banklar himoya tizimlarini muntazam ravishda yangilab borishlari lozim.

Tijorat banklari uchun raqamli transformatsiya jarayonida qator texnologik va tashkiliy qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin. Bu jarayonda banklar o'z infratuzilmasini modernizatsiya qilish va yangi sharoitlarga moslashish uchun strategik rejalashtirishni amalga oshirishlari zarur.

Raqamli texnologiyalar joriy etilishi bilan bog'liq yangi regulyativ talablar tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu talablar banklar tomonidan qoidalarga rioya qilishni ta'minlash va bozor barqarorligini saqlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida banklar o'zlarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini samarali boshqarish uchun raqamli texnologiyalardan keng foydalanishi lozim. Bu jarayon, bir tomondan, banklarga yangi bozor imkoniyatlarini ochib beradi, ikkinchi tomondan esa, texnologik xatarlar va regulyativ talablar bilan bog'liq muammolarni hal qilishni talab qiladi.

Tijorat banklari uchun raqamli transformatsiya jarayoni kompleks yondashuvni talab etadi, bunda har bir bank o'z resurslarini va texnologik imkoniyatlarini inobatga olgan holda strategik qarorlar qabul qilishi zarur. Shuningdek, mijozlarga xizmat ko'rsatish darajasini oshirish, qimmatli qog'ozlar portfelini diversifikatsiya qilish va yangi texnologik echimlarni joriy etish orqali banklar qimmatli qog'ozlar bozoridagi o'z pozitsiyalarini mustahkamlashlari mumkin.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini takomillashtirish milliy iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligi va umumiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Banklar, moliyaviy vositachi sifatida, kapital bozorlarida ishonchli hamkor bo'lishi, investorlarga raqobatbardosh xizmatlarni taklif etishi va raqamli iqtisodiyot sharoitida o'z faoliyatini doimiy ravishda yangilab borishi lozim. Bu jarayonda, tijorat banklari nafaqat o'z daromadlarini oshirishi, balki iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligi va rivojlanishiga ham hissa qo'shishi mumkin.

### **Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi kelajakdagi yo'nalishlari**

Banklar raqamli texnologiyalarni joriy etish va qimmatli qog'ozlar bozorida o'z pozitsiyalarini mustahkamlash uchun bir qator istiqbolli yo'nalishlarni o'rganishlari zarur:

#### **1. Fintech bilan integratsiya va hamkorlik.**

Banklar fintech kompaniyalari bilan hamkorlik qilish orqali qimmatli qog'ozlar bozoridagi innovatsiyalarni tezroq joriy etishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, yangi mahsulotlar va xizmatlarni yaratish, mijozlar bazasini kengaytirish va operatsion xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

#### **2. Blockchain va smart-kontraktlardan foydalanish.**

Blockchain texnologiyasi va smart-kontraktlar qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarni avtomatlashtirish, operatsiyalar xavfsizligini oshirish va xarajatlarni

kamaytirishga xizmat qiladi. Banklar ushbu texnologiyalarni qo'llash orqali bozorda o'z raqobatbardoshligini oshirishi mumkin.


3. Kriptoaktivlar bilan ishlash.

Kriptoaktivlar va raqamli tokenlar qimmatli qog'ozlar bozorida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Tijorat banklari bu aktivlar bilan ishlash uchun infratuzilmani rivojlantirish va reguliyativ talablarni inobatga olgan holda strategiyalarni ishlab chiqishlari zarur.

4. Yangi xizmat turlarini rivojlantirish.

Mijozlarga keng ko'lamli xizmatlar taklif qilish, xususan, raqamli qimmatli qog'ozlar va innovatsion investitsiya mahsulotlarini joriy etish, banklarga yangi mijozlarni jalb qilish va bozordagi o'rnini mustahkamlash imkonini beradi.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini rivojlantirish kontseptsiyasini tuzishga endogen va ekzogen omillar ta'sir etishini inobatga olib, quyidagi rasmda ushbu omillarning tizimli modelini ko'rib chiqamiz.



1-rasm. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini tashkil etishning tizimli modeli (Nosirov, 2006)

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini tashkil etish modelini bo'lgan omillar xususida to'xtalish maqsadga muvofiqligini inobatga olib, ularning asoslari haqida qisqacha mulohaza yuritishga harakat qilamiz:



–bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi faoliyatini tizimli modeli moliya bozorlarining rivoji va holati bilan bevosita bog'liq holda rivojlanishga kuchli ehtiyojning mavjudligi. Tahlillar va tadqiqotlar natijasida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha qisqa (o'rta) va uzoq (strategik) muddatga mo'ljallangan siyosatning mavjud emasligi, banklar ushbu faoliyatini stixiyali ravishda tashkil etishi ma'lum bo'ldi. Ta'kidlash joizki tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalari orqali barqaror va arzon manbalar hisobidan ta'minlashning ma'lum muddatga mo'ljallangan siyosatini ishlab chiqishda tegishli manbalar zarur bo'ladi, ya'ni banklar mazkur sohadagi asosiy maqsadi nimaga qaratilganligi, mamlakat moliya va pul resurslari bozoridagi ahvoning holati haqidagi va boshqa manbalarning mavjud emasligi shular jumlasidandir.

Bunday manbalarning mavjud emasligi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarini amalga oshirish orqali banklarning uzoq muddatli moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash, bankning likvidlilik bilan bog'liq muammosini zudlik bilan hal etish imkoniyatlariga ega bo'lishi, shuningdek tegishli daromad ishlab topish kabi iqtisodiy manfaatdorligini mustahkamlashga e'tibor qaratilmagan. Mazkur tizimli modelning amaliyotga joriy etilishi ushbu yo'nalishdagi dastlabki ziddiyatli holatlarni hal etishga xizmat qiladi.

–mahalliy va xorijiy investorlar, omonatchilar hamda mijozlarni bank faoliyatining umumiy strategik rivojlantirish yo'nalishi bo'yicha ishonchini shakllantirish zarurligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida faoliyat yuritayotgan mamlakatlarning tajribalari hamda tadqiqot ishi jarayonida shakllantirilgan natijalar bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyat asosini iqtisodiy hamkorlar o'zaro ishonchi tashkil qilishiga amin bo'ldik. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, respublikamiz tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarini amalga oshirishda mahalliy va xorijiy investorlar, omonatchilar hamda bank mijozlarining faol ishtirokini ta'minlash uchun eng avvalo ularning to'liq ishonchini shakllantirish zarur.

### **Xulosa va takliflar.**

G'arbiy Yevropa mamlakatlari, AQSh va Yaponiyada inflyatsiyaning yillik darajasi 3 foizdan oshmaydigan mo'tadil darajasi saqlab turiladi. Shuning uchun ham, mazkur mamlakatlarning tijorat banklari faoliyatida inflyatsiya muammosi deyarli uchramaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning asosiy qismida inflyatsiyaning nisbatan yuqori va noabarqaror darajasi saqlanib qolmoqda. Shuning uchun ham, mazkur mamlakatlarda bank aktsiyalarini qulay baholarda ikkilamchi fond bozorlarida sotish muammosi o'zining dolzarbligini saqlab turibdi. Mazkur muammolarning natijasi o'laroq, ushbu mamlakatlarda xorijiy valyutalarda yozilgan bank aktsiyalariga bo'lgan talab yuqoridir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda to'lov balansining surunkali defitsitga ega ekanligi milliy valyutalarning almashuv kurslarini doimiy ravishda tebranishiga sabab bo'lmoqda. Bu jarayon milliy valyutada yozilgan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning real qiymatini pasayishiga sabab bo'lmoqda. Shuning uchun ham, rivojlanayotgan mamlakatlarda milliy valyuta kursining barqarorligini saqlab turish maqsadida to'lov balansining holatiga katta e'tibor berilmoqda.

O'zbekistonda tijorat banklari dividend siyosatiga inflyatsiyaning ta'siri muammosi o'zining yechimini topmoqda. Ya'ni, inflyatsiya darajasi yil sayin pasayish tendentsiyasiga ega bo'lmoqda.

Tijorat banklarining xorijiy valyutalarda amalga oshiriladigan dividend to'lovlari ular uchun ma'lum muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Ana shunday muammolardan biri sifatida milliy valyuta kursining pasayishi sharoitida banklarning dividendlar to'lash bilan bog'liq xarajatlarining oshishini alohida ko'rsatish mumkin. Bunda, banklarning dividend to'lash maqsadidagi xarajatlarining umumiy hajmi oshadi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini rivojlantirish kontsepsiyasining amaliyotga joriy etilishi banklarning investitsion, emission va vositachlik operatsiyalarini samaradorligini oshirish imkoniyatini beradi va mamlakatda iqtisodiy o'sishni oshirishga hamda aholi turmush farovonligini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar/Литература/Reference:**

Admati, A.R. va Hellwig, M. (2014) "The Bankers' New Clothes: What's Wrong with Banking and What to Do about It" 4. P. 83-89.

Haydarov O'. (2022) "Investitsiyalar". darslik TDIU. –T. 27-b.

Nosirov E.I. (2006) "Qimmatli qog'ozlar bozorida tijorat banklarining rolini oshirish masalalari". dissertatsiyasi-T.

Raghuram G. Rajan (2010) *Fault Lines: How Hidden Fractures Still Threaten the World Economy*. P. 175-178.

Saipnazarov Sh. (2020) "Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy injiniringni yo'llari". (PhD) dissertatsiyasi-T. 15-b.

Turner, A. (2016) – "Between Debt and the Devil: Money, Credit, and Fixing Global Finance" 1. P. 121-123.

Yuldashev F.A. (2005) *Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini faollashtirish masalalari: dissertatsiyasi-T – Toshkent, 31-b.*